

SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI.

Buronova Mahliyo G'ulomovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya Ta'lim sohasini yanada isloh qilish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash bo'yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e'tirofga molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda ta'limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan. Shu maqsadda ta'limning barcha yo'nalishlarida qator o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda va bu o'zgarishlar ta'lim sohasida so'nggi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan tizimli o'zgarishlarning navbatdagi ilmiy asoslangan va natijasi kafolatlanayotgan bosqichidir.

Kalit so'zlar: Ta'lim to'g'risidagi qonun, inklyuziv ta'lim, kasb ta'lim texnologiyasi, ta'limiy kenglik.

Аннотация Заслуживают признания высказанные конструктивные идеи по дальнейшему реформированию, обеспечению качества и эффективности образования. Потому что опыт развития развитых стран показывает, что там, где созданы хорошие условия для образования и науки, вырастают всесторонне развитые и патриотичные кадры. В этих целях ожидается ряд изменений во всех сферах образования. Эти изменения являются очередным научно обоснованным и гарантированным этапом системных изменений, которые реализуются в сфере образования в течение последних 5-6 лет.

Abstract The constructive ideas expressed on further reforming the education sector and ensuring the quality and efficiency of education are worthy of recognition. After all, the development experience of developed countries shows that wherever good conditions have been created for education and science, there have been developed comprehensively mature and patriotic personnel. To this end, a number of changes are expected in all areas of education, and these changes are the next scientifically based and guaranteed stage of systemic changes that have been implemented in the education sector for the past 5-6 years.

Kirish.

Ta'lim – bilim berish malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida ma'lu-mot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jami-yatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy muno-sabatlar, umumiy ma'lumotga ega bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgar-ligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan.

Ta'lim faoliyati o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

ma'lum bir tajriba va amaliy faoliyat turini muvafaqqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlarni o'zlashtirish.

mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va vositalarni o'zlashtirish.

ko'zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va usul tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan axborotlardan foydalanish usullarini egallash.

Insonning ma'lum bilim ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan talab va ehtiyoj kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi g'oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davrlarida ta'limning mohiyati, mazmunini tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi.

Ta'lim mohiyatiga ko'ra bu jarayonda ishtirok etuvchilarning o'zaro hamkrolikdagi faoliyatlarining natijasidir. Ta'lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilatlarini o'zgaradi. Bu jarayonda kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari tehsil oluvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va shu yo'l bilan u avlodlar orasidagi ma'naviy madaniy, ijtimoiy vorislikni ta'minlaydi.

Kasb ta'lim texnologiyasi – butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasidagi muloqot to'g'risida tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

O'qitish metodikasi – bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir. Kasbiy ta'lim metodikasi ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

Ta'limiy kenglik – ta'lim jarayonlari amalga oshiradigan ya'ni tashqi atrof muhit bilan o'zaro harakat anglanadigan va amalga oshiriladigan kenglik. Pedagogic jarayonda ta'limiy kenglikning son va sifat jihatdan tavsifi asosan pedagogga, uning ichki madaniyati, dunyoqarashi, qarashlariga bog'liq bo'ladi.

Bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o'zi mavjud. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma'lumot (axborot) orqali o'tadi.

USULLAR Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Qonunda dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi.

NATIJALAR MUHOKAMASI

Mamlakatimizda bolalar va yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish jarayonlari "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi" g'oyasi asosida tubdan takomillashtirilayotgani bu fikr-ning amaliy ifodasidir.

So'nggi olti yilda yurtimizda qo'shimcha 500 ming o'quvchi o'rni yaratilib, ularning jami soni 5 million 300 mingga yetdi. Hozirgi vaqtda yana 1 million 200 ming o'quvchi o'rni yaratish bo'yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda.

O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilangan. Shu ulug'vor maqsad yo'lida qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi doirasida 2023 yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berilgani juda muhim.

Davlatimiz va jamiyatimiz, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratmoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir".

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu borada oldimizda turgan eng asosiy vazifalar belgilab berildi.

Birinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, dunyoqarashini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni kerak. Bu – juda katta marra ekanini qayd etar ekan, Yurtboshimiz bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardagi ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilish hamda bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratish zarurligiga e'tiborni qaratdi.

Ikkinchidan, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalardandir. Ayni yo'nalishda:

- o'qituvchilarning maqomini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash;

- boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yish;

- bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishiga erishish;

- farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirish;

- o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Mamlakatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, “Mana, maktablarimizga qanday muhit kirib kelishi kerak!” Yanada muhimi, 2023 yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanmoqda. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil etiladi.

Joriy yilda 70 ta yangi maktab quriladi, 460 ta maktab kengaytiriladi. Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanadi, kelgusi besh yilda ularning soni 1 mingtaga yetkaziladi.

O'tgan yili Qoraqalpog'iston va Xorazmda 285 ming nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish yo'lga qo'yilishi hisobiga bu borada yetarli tajriba orttirildi. Yangi o'quv yilidan ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etiladi.

Uchinchidan, yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Bunda maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotganini hisobga olgan holda, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarur, dedi Prezidentimiz. Shu maqsadda 2023 yildan boshlab har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etilishini ko'zda tutadigan yangi dastur amalga oshiriladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinishi shart.

Ayni chog'da, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash qamrovi kengaytiriladi. Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga, alohida Muhandislik maktablari tashkil qilinadi. Bu, o'z navbatida, mutlaqo yangi-cha tizim – yangi zamon injenerlarini tayyorlash tizimini yaratishga asos bo'ladi.

To'rtinchidan, oliy ta'lim sohasidagi islohotlar izchil davom ettiriladi. So'nggi yillarda mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlari soni 2,5 barobar ko'paydi va 198 taga yetdi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Asosiysi, raqamlar izidan quvish emas, balki ta'lim sifatini oshirishdir. Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi. Davla-timiz rahbari uqtirganlaridek, "Oliygoth rektorlari, professor va o'qituvchilar bu jarayon-larda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerak".

Joriy yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytiriladi. Bu degani – ayni maqsad uchun 1,7 trillion so'm ajratilishini anglatadi.

Beshinchidan, Yangi O'zbekiston — insonning rivojlanishi va iste'dodi qadrlana-digan mamlakat. Bugungi kunda ilmfan, ta'lim, innovatsiya, texnologiya va kadrlar zamo-naviy demokratik jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili ekaniga hech kim shubha qil-maydi. Mamlakatimiz taraqqiyotini zamon talablariga mos ravishda ilmfansiz tasavvur etish qiyin.

Binobarin, 2022 yilda ilm-fan va innovatsiyalarga 1,5 trillion so'm, ya'ni 2017 yilga nisbatan qariyb 6 barobar ko'p mablag' yo'naltirildi. Olimlarning ish haqi ham 4,5 barobar oshirildi. Bularning barchasi hisobidan nano va biotexnologiyalar, raqamli geologiya kabi 18 ta yangi ilmiy yo'nalish tashkil etildi. Joriy yilda ilm-fan va innovatsiyalarga 1,8 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarida amalga oshirilayotgan salmoqli va ko'lamdor ishlar bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish masalalariga birinchi galdagi vazifa sifatida qaralayotganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T., 1997.
2. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri." –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Kenkies, K. (2012). "Educational theory as topological rhetoric. The concepts of pedagogy of Johann Friedrich Herbart and Friedrich Schleiermacher". Studies in Philosophy and Education.
5. Howard Pitler. Using Technology with Classroom Instruction That Works,
6. 2nd Edition. 2011y
7. www.tdpu.uz
8. www.ziyonet.uz
9. www.gov.uz